

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI
ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN MUSIQA RAHBARI
MUTAXASSISLIGIDAN MALAKA SINOVIDA FOYDALANILADIGAN
TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN MUSIQA RAHBARI MUTAXASSISLIGIDAN MALAKA SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya maktabgacha ta'lim tashkilotlari musiqa rahbarlarini attestatsiyadan o'tkazish malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli hamda baholash mezonini talablarini aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgorlarning musiqa fanlari bo'yicha nazariy bilimlari, amaliy ko'nikma va qobiliyatlarini kompleks baholash. Mazkur baholash natijalari asosida pedagog kadrlar attestatsiyasiga qabul qilinadigan qarorlar valid (asoslangan) bo'lishini ta'minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta'minlanadi.

II. Me'yoriy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 572-son Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 17-sentyabrdagi 572-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 692-son Qarori.

III. Baholash qamrovi

Musiqa rahbarlari uchun mutaxassislik fanidan jami 35 ta, kasb standartlaridan 5 ta, pedagogik mahoratdan 10 ta, jami 50 ta test topshirig'i taqdim etiladi va umumiy test topshirig'ini bajarish uchun o'rta hisobda 90 daqiqa vaqt berilgan. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to'g'ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari (Y1), moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari (Y2) va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari (Y3)*) foydalaniladi. Test

topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1. Musiqa elementar nazariyasi (1-10 savollar)		
Musiqa elementar nazariyasi	-Musiqiy tovush va uning xususiyatlarini bilish; -musiqiy tizim, haqida bilish; -tovushqator, pog'onalar haqida bilish; -oktavali tizim, diapazon, registr haqida bilish; -temperatsiyalangan soz tushunchasini bilish; -alteratsiya belgilarini farqlay olish; -tovushlar engarmonizmini farqlash; -nota yozuvi tizimi, kalitlarni farqlay olish; - tovush cho'zimlari va ularni uzaytirish belgilarini aniqlash; - pauzalar turlarini farqlay olish; - musiqaning ifoda vositalarini to'g'ri qo'llash; - nota yozuvini qisqartirish belgilarini farqlay olish; -metr turlarini aniqlash; -musiqadagi temp turlarini farqlay olish; -major va minor lad turlarini farqlay olish; -tonallikning kvinta davrasi tizimi bo'yicha aniqlay olish; - intervallarni notalardan tuzish va ularni ijroda farqlay olish; -akkordlar va uning turlarini tuzishni bilish;	10
2. Musiqa tarixi (11-20 savollar)		
O'zbek xalq musiqa ijodi	-O'zbek xalq musiqa ijodining rivojlanish bosqichlarini bilish; -folklor musiqa janri turlarini farqlash; -kasbiy musiqa janrlarini farqlay olish; -maqom san'ati va uning turlarini farqlash; -mahalliy uslublarni farqlash; -milliy cholg'ularning kelib chiqish tarixini va ijrochilik uslublarini farqlay olish;	10
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa o'qitish metodikasi (21-35 savollar)		
Maktabgacha	-Maktabgacha ta'limda musiqa o'qitish	

ta'lim muassasalarida musiqa o'qitish metodikasi	<i>metodikasining maqsad va vazifasini bilish;</i> <i>-maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun musiqa mashg'ulotlarni rejalashtirishni bilish;</i> <i>-musiqa mashg'ulotlari faoliyatini to'g'ri tashkil etish;</i> <i>-musiqiy-didaktik o'yin va mashqlarni amaliyotda qo'llash;</i> <i>-bolalar cholg'u asboblariida ijro usullarini amaliyotda qo'llash;</i> <i>-o'zbek milliy raqs harakat turlarini mashg'ulotlarda qo'llash;</i> <i>-musiqa mashg'uloti faoliyatlari uchun tanlangan repertuarlarni ijro etishni bilish;</i> <i>-bolalar folklor qo'shiqlarining ijro usullarini tahlil qilish;</i> <i>-xorijiy kompozitorlar yaratgan bolalar musiqa asarlarini amaliyotda qo'llash;</i> <i>-o'zbek bolalar kompozitorlari yaratgan asarlarni farqlash, ularni amaliyotda qo'llash;</i> <i>- MTTda bayram tadbirlarini tashkil etishni yo'llarini amaliyotda qo'llay olish;</i>	15
---	--	-----------

Kasb standartlari va pedagogik mahoratdan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
I. PEDAGOGIK MAHORAT		10 ta
1.1. Pedagogik psixologik kompetensiyalar	– pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asoslarini bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, kasbiy faoliyatda zarur pedagogik qobiliyatlar, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o'sish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik jarayonni loyihalash (shart-sharoit, texnologiya, o'zaro munosabatlar) mazmunini, model loyiha–amaliyot ketma-ketligini, innovatsion texnologiyalarni joriy etish mantig'i va bosqichlarini, ta'lim muhitini loyihalashning tayanch shartlari hamda pedagogik dizayn turlarini bilishi va vaziyatlarda qo'llay olishi	5

1.2. Bolalar rivojlanishini qo'llab quvvatlash	–“Ilk qadam” milliy o‘quv dasturining maqsad va tamoyillarini, 0–7 yosh davrida bolaning rivojlanish bosqichlari hamda yosh xususiyatlarini, bolaga yo‘naltirilgan va differensial yondashuv hamda o‘yin asosida o‘qitish mantig‘ini, shuningdek oraliq/yakuniy kuzatishning maqsadi va tamoyillarini hamda “rivojlanish xaritasi”ning vazifasini bilish; – bola rivojlanish dinamikasini baholay olish, rivojlantirish maqsadlarini aniq belgilash va yondashuvlarni vaziyatlarda qo‘llay olish	2
1.3. Metodik va texnologik savodxonlik	– maktabgacha ta’limda pedagogik faoliyatni loyihalashtirish asoslarini, innovatsion pedagogik texnologiya (loyihaga asoslangan ta’lim, muammoli ta’lim, hamkorlikdagi ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, interfaol ta’lim, differensial ta’lim, syujet-rolli o‘yinlar, inklyuziv ta’lim, jismoniy faolligini oshirish,tasviriy va dizayn faoliyati, qurilish va konstruksiyalash mashg‘ulotlarini loyihalashtirish va boshqalar)larni bilish va faoliyatga mosini tanlay olish; – maktabgacha ta’limni loyihalash va tashkil etish bo‘yicha qabul qilingan qarorlarga baho berish va natijalarini tahlil qilib asosli mulohaza qila olishi	3
II. KASBIY STANDART		5 ta
2.1. Kasbiy standart	– kasbiy standart doirasida umumiy qoidalar, standartning maqsad va vazifalari, pedagogga qo‘yiladigan bilim-ko‘nikma-malaka talablari, uning mehnat vazifalari, baholanadigan ko‘rsatkichlar tizimi hamda yakunlovchi qoidalar mazmunini bilishi, ularni amaliyotda qo‘llay olishi va faoliyati natijalarini tahlil qilib asosli mulohaza qila olishi; – kasbiy standart bo‘yicha talab etiladigan umumiy talablar, zarur bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni quyidagi yo‘nalishlarda egallashi zarur: rivojlantiruvchi ta’lim muhitini tashkil etish, ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish va tashkil etish, bolalar rivojlanishini kuzatish, oila bilan hamkorlik qilish hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishni bilishi, ularni amaliyotda qo‘llay olishi va faoliyati natijalarini tahlil qilib asosli mulohaza qila olishi.	5

Kognitiv ko'nikmalar taqsimoti

2-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo'llanilishini tushunish	8
2	Qo'llash	Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo'llay olish	35
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	7

IV. Baholash mezoni

Test topshiruvchining umumiy ballini hisoblash uchun har bir to'g'ri javob uchun 2 ball, noto'g'ri javob uchun 0 ball beriladi. Mutaxassislik fanidan maksimal ball 100 ballni tashkil qiladi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa". U.K.Rahmonov, A.A. Ergashev. Toshkent-2021
2. "Ilk Qo'shiqlarim" Y. Ten "Maktabgacha ta'lim vazirligi muassasaligidagi "Axborot va pedagogika texnologiyalari innovatsion markazi" MChJ
3. Musiqa elementar nazariyasi. Garmoniya Ibraximjanova G.A., Urmanova L.A., Xodjayeva M. X., Xalilov F.N. Toshkent-2017
4. Musiqaning elementar nazariyasi. Rahimov Q. Toshkent-2007
5. Элементарная теория музыки. В.Вахромеев. Москва-1961

6. Элементарная теория музыки. Б. Алексеев, А. Мясоедов. Москва.: Музыка-1986
7. Задачи и упражнения по элементарной теории музыки. В. Хвостенко. Москва-1965
8. Musiqqa nazariyasi. N. Turg'unova, Z. Arzibayeva Toshkent-2018
9. Musiqaning elementar nazariyasi bo'yicha mashq va vazifalar to'plami. Q. Rahimov. Toshkent-O'zbekiston-2006
10. M.B. Agayeva. Musiqqa nazariyasi Toshkent-2016
11. Musiqqa lug'ati. I. Akbarov. Toshkent-1987
12. Musiqqa nazariyasi (Solfedjio) SH. Jalilov Buxoro-2022
13. Одноголосное сольфеджио. Н.М. Ладухин. Москва-1998
14. Maqom ritmlari solfedjio darslarida. S.K. Matyakubova. Toshkent-2011
15. Курс сольфеджио. А. Агажанов. Москва-1974 1985
16. Сольфеджио. А. Л. Островский. Москва-1967
17. Сольфеджио. Б. Калмыков, Г. Фридкин. Музыка 1974
18. Solfedjio. O. Abdullayeva. Toshkent-2010
19. Ikki ovozli solfedjio. I. Hamroyev. Toshkent-1977
20. Сольфеджио. Двухголосие. Трехголосие. И. В. Способин
21. Solfedjio. O. Azimov. Toshkent-2014
22. Solfedjio. N. Rajabova. Toshkent 2004
23. Garmoniya darsligi. I. I. Dubovskiy, S.V. Yevseyev, I.V. Sposobin va V.V. Sokolov. Toshkent, "O'qituvchi"-1979
24. Учебник гармонии. Ю.Н. Тюлин, Н.Г. Привано. Москва «Музыка» 1986
25. O'zbek musiqasi tarixi. A. Jabborov, S. Begmatov, M. Azamov Toshkent-2018
26. O'zbek musiqqa tarixi. Madrimov B.X. Toshkent-2018
27. O'zbek an'anaviy cholg'ulari. S. Begmatov, M. Matyoqubov. Toshkent-2008
28. Oiladosh cholg'ularni o'rganish. Kayumov Ibragim Fayzullayevich. Buxoro -2020
29. O'zbek milliy cholg'usozlik tarixi. Anvar Liviye. Toshkent-2005
30. O'zbek musiqqa adabiyoti. N. Yuldasheva, N. Raxmatova Toshkent-2016
31. O'zbek musiqasi tarixi. Sh. Ayxodjayeva, Sh. Ergasheva, A. Zokirov Toshkent-

2021

32. O‘zbek xalq musiqa madaniyati. S.Mannopov . Toshkent-2004
33. O‘zbek xalq musiqa ijodi. H.Nurmatov, N.Yo‘ldosheva. Toshkent-2007
34. O.Ibrohimov Maqom asoslari. Toshkent-2023
35. Musiqa tarixi. Ibrohimov O.A., Xudoyev G‘.M. Toshkent-2018
36. Bastakorlar ijodi. Soinjon Begmatov. Toshkent-2017
37. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik. A.H.Liviyev. Toshkent-2001
38. An‘anaviy o‘zbek musiqasi asoslari. Rustam Abdullayev. Toshkent-2022
39. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqa tarbiyasi. B.Boltayev, J.A.Xodjayev. Toshkent-2021
40. Musiqa savodi, metodikasi va ritmika. Nafisa Yusupova. Toshkent-2010
41. “Keling birga kuylaymiz”. Ulug‘bek Mirzahmedov. Toshkent-2017
42. Maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqa o‘qitish metodikasi. G.Sharipova, Sh. Yakubova. Toshkent-2017
43. Maktabgacha ta’limda musiqa o‘qitish metodikasi. N.Rejametova Toshkent 2024
44. Bolalar musiqa asarlari ustida ishlash. D.A.Karimova, Sh.A.Yakubova Toshkent-2016
45. “Ilk qadam“ davlat o‘quv dasturi. Toshkent-2022

VII. Pedagogik mahorat va kasb standartlari bo‘yicha manbalar

1. Алиходжаева Г.С. Инновация в дошкольном образовании. Учебник. – Ташкент, 2024. – стр. 284.
2. Muslimov N. va boshq., Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2024. – 120 b.
3. Qodirova F. va boshq., Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2019. - 688 b.
4. Sodiqova Sh.A. va boshq., Maktabgacha ta’limda ta’lim va tarbiya texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2022.
5. Xalikova U.M., Maktabgacha ta’limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro: “Fan va ta’lim” nashriyoti, 2022. -216 b.
6. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, – Toshkent: “Bayoz” nashriyoti, 2025. - 504 b.

Foydalanishga tavsiya etiladigan asosiy normativ-huquqiy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabr dagi“Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli qarori

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-iyuldagi “Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 423-son qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining 2021-yil 17-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigiyenik talablar” to‘g‘risidagi 0016-21-son buyrug‘i.

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.